

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## BIOLOGIYA

**D.R.Kapizova, I.I.Zokirov**

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili  
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) ..... 101

**R.N.Mo'minova**

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari ..... 106

**С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова**

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого  
рогатого скота Каракалпакстана ..... 110

**S.B.Orifov, F.R.Xolboyev**

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati .... 116

**N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva**

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) ..... 121

**M.A.Axmadjonova**

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga  
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari ..... 127

**V.A.Karimov, M.Nazarov**

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish ..... 133

---

## GEOGRAFIYA

**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish ..... 142

**I.O.Sulaymonov**

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari ..... 146

**Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev**

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi ..... 150

**I.Aripov, R.Mariya**

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining  
iqtisodiy baholanishi ..... 154

**A.U.Usmonov, A.K.Ergashev**

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari  
(Vobkent tumani misolida) ..... 161

**O.N.Xakimov**

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi ..... 166

**O.N.Xakimov**

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni ..... 178

---

## ILMIY AXBOROT

**Y.E.Altiboyev**

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili ..... 190

**A.A.Akramov**

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini  
takomillashtirish modeli ..... 195

**M.J.Urinov**

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga  
falsafiy tavsif ..... 199

**B.F.Abdishukurov**

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar  
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) ..... 203

**A.M.To'rayev**

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish....207

**Sh.M.Kadirov**

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini  
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 210



UO'K: 597.55

**MEVALI BOG'LAR KOKSIDLARI ENTOMOFLAGLARINING SISTEMATIK TAHLILI**  
**(Sharqiy Farg'ona hududi misolida)**

**СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭНТОМОФАГОВ КОКЦИД САДОВ (НА ПРИМЕРЕ  
ВОСТОЧНОЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**SYSTEMATIC ANALYSIS OF ENTOMOPHAGES OF COCCIDS OF ORCHARDS (ON  
THE EXAMPLE OF EASTERN FERGANA REGION)**

**Kapizova Dilafruz Raxmonjonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Zokirov Islomjon Ilhomjonovich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti professori, b,f,d.

**Annotatsiya**

*Maqolada mevali bog'lari koxsidi larining tabiiy kushandalari sistematik tahlil qilingan. Sharqiy Farg'ona hududi mevali bog'larida koxsidi lar va entomofag umumiy soni 53 turdan iborat. Aniqlangan turlarning 41,5% (22 tur) koxsidi lar hamda 58,5% (31 tur) esa entomofaglarga to'g'ri keladi. Mevali daraxt va butalarda yashovchi zararkunanda koxsidi lar 4 oila 17 avlodga mansub 22 turdan iborat. Mazkur koxsidi larning tabiiy kushandalari esa 3 turkumga mansub 12 oilaning 26 avlodiga kiruvchi 31 turni tashkil etadi.*

**Аннотация**

*В статье систематически проанализированы природные кокцидиозы садов. Общая численность кокцид и энтомофагов в садах Восточной Ферганской области составляет 53 вида. Из выявленных видов 41,5% (22 вида) являются кокцидами и 58,5% (31 вид) – энтомофагами. Вредители кокциды, обитающие на плодовых деревьях и кустарниках, насчитывают 22 вида, принадлежащих к 17 родам в 4 семействах. Природная группа этих кокцид состоит из 31 вида, относящегося к 26 родам 12 семейств, относящихся к 3 семействам.*

**Abstract**

*The article systematically analyzes natural coccidiosis of orchards. The total number of coccids and entomophagus in the orchards of the Eastern Fergana region is 53 species. 41.5% (22 species) of identified species are coccids and 58.5% (31 species) are entomophages. Pest coccids living in fruit trees and shrubs consist of 22 species belonging to 17 genera in 4 families. The natural group of these coccids consists of 31 species belonging to 26 genera of 12 families belonging to 3 families.*

**Kalit so'zlar:** Mevali bog'lari, koxsid, entomofag, tur, fauna, ekologiya, Sharqiy Farg'ona.

**Ключевые слова:** Сады, кокциды, энтомофаги, виды, фауна, экология, Восточная Фергана.

**Key words:** Orchards, coccid, entomophagus, species, fauna, ecology, Eastern Ferghana.

**KIRISH**

Mevali bog'larni zararkunandalardan himoya qilishda zamonaviy entomologik tadqiqotlar olib borish, biologik kurashning ilmiy asoslarini yaratish hamda shu asosda zararli turlarga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish taqozo etilmoqda. Mevali bog'lari koxsidi lar va ularning entomofaglari tur tarkibi va taksonomiyasini aniqlash, ekologik-faunistik jihatdan tahlil qilish, koxsidi lar va entomofag o'rtaida shakllangan "parazit-xo'jayin" tizimini asoslash, hasharotlardagi morfoekologik moslanishlarini izohlab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, mevali bog'lari koxsidi larining tabiiy kushandalari tadqiq etish bo'yicha izlanishlar olib borilmogda [3, 4, 5, 6, 7].

**TADQIQOT USLUBLARI VA ADABIYOTLAR SHARHI.**

Koxsidi lar va ularning entomofaglarini faunistik tahlil etish, dominant turlar bioekologiyasi va ayrim vakillarining tarqalishiga oid ma'lumotlar MDH olimlaridan N.S.Borxsenius (1957),

B.A.Sonina (1962), I.A.Gavrilov (2003), A.V.Myasnikova (2010) va boshqalar tomonidan, Markaziy Osiyo miqyosidagi A.D.Arhangelskaya (1937), V.P.Nevskiy (1937), N.I.Abdorashitova (1998), R.X. Kadirkbekov (2010) va boshqalar tomonidan hamda O'zbekistonda esa R.O.Olimjonov (1971), K.Zokirov (1972), D.B.Daminova (1989), A.Sh.Xamrayev va b. (2013), O.T.Sobirov (2020), Sh.T.Xo'jayev (2014), E.A.Xolmurodov (2015), B.Q.Muhammadiev (2016) va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar mevali bog'lar koxsdlarining entomofaglari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Shunga ko'ra, Farg'ona vodiysining mevali bog'ları koxsdlari va ularning tabiiy kushandalarini ekologik-faunistik tahlil etish maqsad qilib olindi. Tadqiqotda entomologik, faunistik va taksonomik usullardan foydalilanigan [Борхсениус, 1950].

Mazkur maqolaga 2018-2023-yillar davomida Farg'ona vodiysining sharqiy qismiga kiruvchi tuman va shaharlardagi tabiiy hamda madaniy senozlarda o'sayotgan mevali daraxt va butalardan yig'ilgan koxsid va entomofaglar namunalari, olib borilgan kuzatishlar hamda laboratoriya sharoitida o'tkazilgan eksperiment natijalari asos bo'ldi.

### OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Dunyo koxsido faunasini tarkibi 16 oilaga mansub 6000 dan ortiq, palearktikada esa 500 dan ortiq turni tashkil etadi.

Vodiy hududida uchrovchi koxsdlar ilk bor K.Zokirov tomonidan 1960-70 yillarda taksonomik tahlil etilgan [Зокиров, 1972; 194 b.]. Mazkur yo'naliishdagi keyingi tadqiqotlar 2010-2020-yillarda O.Sobirov tomonidan o'tkazilgan [Собиров, 2020; 3-119 b.].

O.T.Sobirovning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysining mevali daraxtlarida 21 turga mansub koxsdlar uchraydi. Ularning 7 turi vodiy endemigi, 1 turlar adabiyotlar ma'lumotlari asosida qayd etilgan endemik tur va 13 turga mansub koxsdlar esa vodiyyda adventiv sanaladi [Собиров, 2020; 29-33 b.].

Ta'kidlash kerakki, olib borilgan tadqiqot ishlari mevali va manzarali daraxt va butalarning koxsdlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularning entomofaglari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Shundan kelib chsiqib, Sharqiy Farg'ona mintaqasida mevali bog'lar agrotsenozlarida koxsdlarning entomofaglarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borildi.

Tadqiqotlarimiz davomida Sharqiy Farg'ona hududining deyarli barcha hududlarida mevali bog'larda ushbu turlar uchratilib, zarar keltirishi ma'lum bo'ldi.

Faunistik tahlil natijalari asosida Sharqiy Farg'onaning daraxt va butalarida yashovchi zararkunanda koxsdlar 4 oila 17 avlodiga mansub 22 turi uchrashi aniqlandi.

### 1-jadval

#### Sharqiy Farg'ona mevali bog'larida koxsdlarning oila va avlodlar bo'yicha taqsimlanishi

Oila nomi	Avlodlar soni	Avlodlarga nisbatan ulushi	Turlar soni	Jami turlarga nisbatan ulushi
Margarodidae	1	5,9%	1	4,5%
Pseudococcidae	3	17,6%	3	13,6%
Coccidae	7	41,2%	8	36,4%
Diaspididae	6	35,3%	10	45,5%
Jami:	17	100%	22	100%

Koxsdlar entomofaglari faunasini tahlil etish ilk marta amalga oshirilgani bois, ularning tur tarkibini aniqlash va taksonomik katalog tuzish o'ziga xos mashaqqatli bo'lishi tabiiy. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ularning ro'yxatini shakllantirishda tabiatda uchrovchi vakillari bilan bir qatorda, mevali bog'larda uchrovchi koxsdlardan laboratoriya sharoitida chiqarilgan entomofaglarni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etdi.

2000-2023-yillar davomida olib borilgan kuzatishlar va laboratoriya sharoitida koxsdlardan chiqarilgan entomofag turlar namunalarini aniqlash natijalari hamda ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, ularning tur tarkibi quyidagi shaklda ifodalandi. Ya'ni yig'ilgan namunalarning tahlili Sharqiy Farg'ona hududidagi mevali bog'lar koxsdlarida 3 turkumga mansub 12 oilaning 26 avlodiga kiruvchi 31 tur entomofaglar uchrashini ko'rsatdi.

**Sharqiy Farg'ona hududi mevali bog' koxsidlari entomofaglarining tur tarkibi****HEMIPTERA****Anthocoridae (Antokoridlar) oilasi*****Anthocoris* Fallén, 1814 avlodi**

1. *Anthocoris nemorum* (Linnaeus, 1761)

**HYMENOPTERA (PARDAQANOTLILAR) TURKUMI****Ichneumonidae (Ixnevmonidlar) oilasi*****Pimpla* Farabricius, 1804 avlodi**

2. *Pimpla turionellae* (Linnaeus, 1758)

**Braconidae (Brakonidlar) oilasi*****Ascogaster* Wesmael, 1835 avlodi**

3. *Ascogaster quadridentata* Wesmael, 1835

**Aphelinidae (Afelinidlar) oilasi*****Aphytis* Howard, 1900 avlodi**

4. *Aphytis proclia* (Walker, 1839)

***Aphelinus* Dalman, 1820 avlodi**

5. *Aphelinus mali* (Haldeman, 1851)

***Encarsia* Förster, 1878 avlodi**

6. *Encarsia lutea* (Masi, 1909) \*

7. *Encarsia perniciosi* (Tower, 1913)

***Coccophagus* Westwood, 1833 avlodi**

8. *Coccophagus lycimnia* (Walker, 1839)

9. *Coccophagus piceae* Erdős, 1956

**Encyrtidae (Ensirtidlar) oilasi*****Pseudaphycus* Clausen, 1915 avlodi**

10. *Pseudaphycus malinus* (Gahan, 1946)

***Ageniaspis* Dahlbom, 1857 avlodi**

11. *Ageniaspis fuscicollis* (Dalman, 1820)

***Blastothrix* Mayr, 1876 avlodi**

12. *Blastothrix hungarica* Erdos, 1959 \*

***Cheiloneurus* Westwood, 1833 avlodi**

13. *Cheiloneurus claviger* Thomson, 1876 \*

***Discodes* Förster, 1856 avlodi**

14. *Discodes coccophagus* (Ratzeburg, 1848)

***Metaphycus* Mercet, 1917 avlodi**

15. *Metaphycus melanostomatus* (Timberlake, 1916)

16. *Metaphycus insidiosus* (Mercet, 1921)

***Microterys* Thomson, 1876 avlodi**

17. *Microterys hortulanus* Erdos, 1956

18. *Microterys sylvius* (Dalman, 1820)

**Eulophidae (Evlofidilar) oilasi*****Oomyzus* Rondani, 1870 avlodi**

19. *Oomyzus gallerucae* (Fonscolombe, 1832)

**Pteromalidae (Pteromalidlar) oilasi*****Pachyneuron* Walker, 1833 avlodi**

20. *Pachyneuron solitarium* (Hartig, 1838)

***Scutellista* Motschulsky, 1859 avlodi**

21. *Scutellista cyanea* Motschulsky, 1859

**COLEOPTERA (QATTIQ QANOTLILAR) turkumi****Coccinellidae (Koksinellidlar) oilasi*****Coccinella* Linnaeus, 1758 avlodi**

22. *Coccinella septempunctata* Linnaeus, 1758

- Chilocorus* Leach, 1815 avlodi**
23. *Chilocorus bipustulatus* (Linnaeus, 1758)
  24. *Chilocorus renipustulatus* (Scriba, 1791)

***Propylea* Mulsant, 1850 avlodi**

    25. *Propylea quatuordecimpunctata* (Linnaeus, 1758)

***Brumus* Mulsant, 1850 avlodi**

      26. *Brumus quadripustulatus* (Linnaeus, 1758)

***Exochomus* Redtenbacher, 1843 avlodi**

        27. *Exochomus quadripustulatus* (Linnaeus, 1758) \*

**Nitidulidae (Yaltiroq qo'ng'izlar) oilasi**

***Cylloides* Erichson, 1843 avlodi**

      28. *Cylloides ater* (Herbst, 1792)

**DIPTERA TURKUMI**

**Cryptochetidae (Kriptoxetidlar) oilasi**

***Cryptochetum* Rondani, 1875 avlodi**

      29. *Cryptochetum turanicum* Nartshuk, 1979 \*

**Chamaemyiidae (Kumush pashshalar) oilasi**

***Leucopis* Meigen, 1830 avlodi**

      30. *Leucopis annulipes* Zetterstedt, 1848

**Syrphidae (Sirfid pashshalar) oilasi**

***Eupeodes* Osten-Sacken, 1877 avlodi**

      31. *Eupeodes corollae* (Fabricius, 1794)

**Izoh:** \* - adabiyotlar asosida kiritilgan turlar [Холмуродов ва бoshq., 2015; Xamrayev va boshq., 2013; Бондаренко, 1986].

Aniqlangan turlar ichida 5 tasi (*Encarsia lutea* (Masi, 1909), *Blastothrix hungarica* Erdos, 1959), *Cheiloneurus claviger* Thomson, 1876, *Exochomus quadripustulatus* (Linnaeus, 1758), *Cryptochetum turanicum* Nartshuk, 1979) yig'ilgan namunalarda qayd etilmasa-da, boshqa mualliflarning ishlarida O'zbekiston sharoitida, xususan, Farg'ona vodiyisida uchrashligi ma'lum qilingan [Холмуродов ва boshq., 2015; Xamrayev va boshq., 2013; Бондаренко, 1986].

Sharqiy Farg'ona mevali bog'lari koksidlari entomofaglarining turkum, oila va avlodlar bo'yicha taqsimlanishi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang).

Entomofaglar faunasi taksonomik tarkibiga ko'ra Hymenoptera turkumi vakillari eng ko'p (20 ta) turga ega bo'lib, taksonlarning entomofaunadagi ulushi 64,5% ni tashkil etadi. Ushbu turkumga mansub oilalar (6 ta, 50,0%) va avlodlar soni (16 ta, 61,5%) ham Coleoptera turkum vakillariga nisbatan yetakchilik qiladi. Bu holatni turkum vakillarida parazitizmning rivojlanganligi, ular hammaxo'r bo'lishi va ko'plab hasharot vakillarida oziqlanishga moslashib ketishi bilan ham izohlash mumkin.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha keyingi o'rinni Coleoptera turkumlari egallaydi. Xususan, kotsinellid va yaltiroq qo'ng'izlarda yirtqichlik xususiyatining namoyon bo'lishi, ulardag'i entomofaglik xususiyatini talqin etishga imkon beradi. Faunada uchrovchi Coleoptera turkumi vakillaridan 2 ta oila (16,7%), 6 avlodga (23,1%) mansub 7 tur (22,6%) qo'ng'izlar qayd etildi.

Diptera turkumi vakillarining koksidlarda parazitlik qilish xususiyati boshqa turkum vakillaridan bir mucha ozdir. Xususan, qo'shqanotilarning 3 ta (25%) oilasiga mansub 3 ta (11,5%) avlodning 3 turi (9,7%) parazitlik xususiyatini namoyon etadi.

Hemiptera turkumining yagona vakili *Anthocoris nemorum* (Linnaeus, 1761) tadqiqotlar davomida yirtqich entomofag sifatida qayd etildi.

## BIOLOGIYA

2-jadval

**Sharqiy Farg'ona mevali bog'lari koxsidiqli entomofaglarining turkum, oila va avlodlar bo'yicha taqsimlanishi**

Turkum nomi	Oila-lar soni	Oilalarga nisbatan ulushi	Avlod-lar soni	Avlodlarga nisbatan ulushi	Turlar soni	Jami turlarga nisbatan ulushi
Hemiptera	1	8,3%	1	1,9%	1	3,2%
Hymenoptera	6	50,0%	16	61,5%	20	64,5%
Coleoptera	2	16,7%	6	23,1%	7	22,6%
Diptera	3	25,0%	3	11,5%	3	9,7%
<b>Jami:</b>	<b>12</b>	<b>100%</b>	<b>26</b>	<b>100%</b>	<b>31</b>	<b>100%</b>

Agar taksonomik tarkibiga ko'ra tahlil etilsa, ularning ichida katta oilalar mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

### XULOSA

Mevali bog'larni zararkunandalardan himoya qilishda kimyoziy preparatlar qo'llash amaliyotidan biologik kurash strategiyasiga o'tish jadal tus olmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, organik mahsulotlarda an'anaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qaraganda 63% ko'proq kaliy, 73% ko'proq temir, 125% ko'proq kaltsiy va 60% ko'proq rux mavjud. Bu esa, o'z navbatida, dunyo bozorida organik usulda yetishtirilgan meva mahsulotlari aholi ehtiyojini to'la qondira olmasligidan dalolat beradi. Chunki mevali bog'lardagi invaziv va karantin bo'lgan turlar hisoblangan koxsidiqlar, shiralar, tunlamlar va boshqa mevaxo'r zararkunanlarga qarshi biologik kurashishning ilmiy asoslari to'liq yaratilmagan. Shundan kelib chiqib, mevali bog'lar koxsidiqlarining biologik agentlarini tadqiq etish hamda entomofaglar qo'llashning biologik asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqlarimiz davomida Sharqiy Farg'ona hududi mevali daraxt va butalarida yashovchi zararkunanda koxsidiqlar 4 oila 17 avlodga mansub 22 turni tashkil etdi. Koxsidiqlarning tabiiy kushandalari esa 3 turkumga mansub 12 oilaning 26 avlodiga kiruvchi 31 turni tashkil etdi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ladiki, zararkunandalar populyasiya miqdor chichligini tabiiy balansini ushlab turishda entomofaglar ulushi yetarli hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, biologic egentlarni tabiiy va sun'iy ko'paytirish choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Бондаренко Н.Б. Биологическая защита растений. –М.: Агропромиздат, 1986. - 278 с.
- Борхсениус Н.С. Сбор и изучение червецов и щитовок в помощь работающим на полезащитных лесных полосах. –М-Л.: Издательство Академии наук СССР, 1950. - 152 с.
- Зокиров И. И., Зокирова Г. М., Капизова Д. Р. Адвентивные виды насекомых (Insecta) овощебахчевых культур Ферганской долины // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 39-46.
- Зокиров К.З., Ҳусанов А.К., Собиров О.Т., Яҳшибоева Г.О. Фарғона водийси мевали ва манзарали дарaxtlar кокцидлари (Homoptera, Coccoidea) фаунасига оид дастлабки маълумотлар // Илмий хабарнома. – Андижон, 2018. - №2. -Б. 38-41.
- Зокиров К. Фауна и биология червецов и щитовок (Homoptera, Coccoidea) и их энтомофагов культурных и диких полодовых растений в Ферганской долине: Дисс. канд. биол. наук. -Ташкент, 1972. - 194 с.
- Капизова Д.Р., Зокиров И.И., Зокиров К., Собиров О.Т. Шарқий Фарғона шароитидаги дендрофил кокцидлар энтомофагларининг биоэкологоик ҳусусиятлари // АДУ. Илмий хабарнома. – Scientific bulletin. Series: Biological Research. 2020. -№ 8 (52). -Б. 41-52.
- Собиров О.Т. Фарғона водийси кокцидлари (Homoptera: Coccoidea) фаунаси, морфологияси ва экологик ҳусусиятлари // Биол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс... –Ташкент, 2020. - 119 б.
- Холмуродов Э.А. ва бошқ. Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш фанидан амалий машгулотлар. – Тошкент, 2015. -133 б.
- Хамрайев А.Ш. va boshq. O'simliklarni biologik himoya qilish. –Toshkent, 2013. 336-b.